



“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi


ULUSLARARO ILMIY-NAZARIY KONFERANS

Toshkent, 2023-yil 25-26-sentabr

THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF EASTERN STATEHOOD AND CULTURE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Tashkent, September 25-26, 2023



- . 1978. *Humayun nama*. Lahore: Sang-a- Meel Publishers.
- Collier, Dirk. 2016. *The Great Mughals and Their India*. New York: Hay House.
- Dale, Stephen Frederic. 2018. *Timurid Prince and Mughal Emperor (1483-1530)*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Grewal, Royina. 2015. *Babur , Conqueror of Hindustan*. Delhi: Rupa Publication.
- Haig, Sir Wolesley. 1928. *Cambridge History of India*. London: Collin and Harper.
- Hookham, Hidla. 1962. *Timerlane, The Conqueror*. London: Hodder and Stoughton.
- Kahan, Iqtidar Alam. 1981. "Early use of Canon and Muskets in India(1442-1526)." *Economic and social History of Orient* 146-164.
- Khan, Iqtidar Alam. 1972. "Turko- Mongol Theory of Kingship." *Medeival India - A Miscellany* 60-75.
- Lal, Ruby. 2005. *Domesacity and Power in the early Mughal World*. Cambridge: Cambridge University Press.
- Lamb, Harold. 2003. *Babur the Tiger: First of the Great Moguls*. Delhi: Natraj Publisher.
- Muh-bul-Hasan. 2021. *Babur, Founder of the Mughal Empire in India*. Delhi: Manohar.
- Roux, Jean-Paul. 2017. *Babur*. Istanbul: Amazon.
- Schimmel, Annemarie. 2004. *The Empire of the Great Mughals, History, Art and Culture*. London: Reaktin Books LTD.
- Yaqeen, Muhammad Haleem. 2005. "Baburi Khat ." *Mosisah Intesharat-ul-Azhar* 45-60.

“BOBURNOMA”DA BOBURGA ZAMONDOSH TEMURIY HUKMDORLAR PORTRETINING YARATILISHI

Akramjon Dehqonov Qodirovich*

Annotatsiya

“Boburnoma” asarida jamiyatning turli tabaqalariga mansub juda ko‘p shaxslar haqida qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Ular ichida temuriy hukmdorlar tasviri o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bobur bu o‘ziga nasabdosh bo‘lgan shahzodalar – hukmdorlarning xarakteridagi, xulq-atvoridagi eng ahamiyatli, eng muhim jihatlarni zo‘r mahorat bilan tasvirlaydi. Tasvirlanayotgan shaxsning to‘laqonli ma’naviy qiyofasi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *Bobur, hokimiyat, shahzoda, temuriy, xiyonat, sadoqat, Boysung‘ur, e‘tiqod.*

CREATION OF PORTRAITS OF TIMURID RULERS CONTEMPORARY TO BABUR IN "BABURNAMA"

Annotation

The work "Baburnama" contains interesting information about many people belonging to different classes of society. Among them, the image of Timurid rulers is distinguished by its uniqueness. Babur skillfully describes the most important aspects

* Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. dehqonov1967@gmail.com; dehqonovakromjon@navoiy-uni.uz

of the character and behavior of the princes and rulers related to him. The complete spiritual image of the depicted person appears before our eyes.

Key words: *Babur, power, prince, Timurid, betrayal, loyalty, Baisunghur, faith.*

“Boburnoma”da juda ko‘p kishilar haqida so‘z yuritiladi. Xususan, jamiyatning yuqori tabaqalariga mansub turli insonlar, ularning tabiatlari, insoniy fazilatlari, xarakterlaridagi kamchiliklar xususida o‘ziga xos uslubda ma‘lumot beriladi. “O‘sha davrning ko‘pgina qiziqarli kishilari haqidagi hikoyalar juda qisqa, lekin Bobur u yoki bu shaxs haqidagi o‘z tasavvurini, uning ma‘naviy qiyofasini bittagina qayd bilan bera oladi. Bu qaydlarida Bobur o‘zining xarakter tasviridagi zo‘r mahoratini ko‘rsata olgan. Bu tasvirlar hayron qolarli darajada go‘zal va hayotiydir. Bobur tasvirlagan bu shaxslarni ularning jamiyatdagi o‘rni va kasb-koriga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bobur obrazi. 2. Temuriy hukmdorlar obrazi. 3. Tarxonlar va harbiy zodagonlar. 4. Fan, san‘at va adabiyot namoyandalari” [Джамиллов 1961, 7].

Biz bu tasnifdagi shaxslardan temuriy hukmdorlar obrazlari yoritilgan o‘rinlarga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. “Boburnoma”da bir necha temuriy hukmdorlar haqida so‘z yuritiladi. Ular ichida Boburning otasi, amakilari va Husayn Boyqaroning portreti mukammalligi hamda tafsilotlarga boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek. Boburning o‘ziga zamondosh shahzodalar – amakivachchalari, Husayn Boyqaroning o‘g‘illari va boshqa uzoqroq qarindoshlari haqidagi ma‘lumotlar ham juda qimmatlidir.

Shu yerda bizga “Boburnoma”ning umrboqiyiligini ta‘minlagan eng asosiy omil haqida to‘xtalib o‘tish joiz ko‘rindi. Bu asarning o‘ziga tortuvchi asosiy jihati – muallifning hayron qolarli darajadagi rostgo‘yigidir. Buni Boburning o‘zi ham asarda alohida ta‘kidlab o‘tgan: “Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota-og‘adin har yaxshilik va yomonlig‘kim shoyi‘ edi, taqdir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqi‘ edi, tahrir ayladim” [Бофур 1989, 180].

Darhaqiqat, bu asarga bo‘lgan jahonshumul qiziqishning asosiy sabablaridan biri ham uning mana shu jihatidir.

Bobur o‘ziga yaqin qarindosh bo‘lgan temuriy hukmdorlar haqida so‘z yuritar ekan, avval uning tug‘ilgan yili, nasl-nasabi, tashqi ko‘rinishi, e‘tiqodi, axloqi, insoniy fazilatlari, kamchiliklari, olib borgan janglari, unga taalluqli viloyatlar, farzandlari, xotinlari va kanizlari, uning xizmatida bo‘lgan amirlar haqida to‘liq ma‘lumot beradi.

Asarda birinchi bo‘lib tavsiflangan shaxs bu Boburning otasi Umarshayx Mirzodir. Bobur otasi haqidagi bor haqiqatni ochiq aytadi. Dastlab Umarshayx Mirzoning fazilatlari – sof e‘tiqodi, saxovati, adolati, mardligi haqida so‘zlaydi: “Hanafiy mazhabliq, pokiza e‘tiqodliq kishi edi, besh vaqt namozni tark qilmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog‘a irodati bor erdi, suhbatlarig‘a bisyor musharraf bo‘lur edi. Hazrat Xoja ham farzand deb erdilar. Bisyor saxovati bor erdi. Xulqi dag‘i saxovatcha bor erdi...” [Бофур 1989, 10].

Shu o‘rinda bir narsani ta‘kidlab o‘tish kerakki, baland himmatlik Boburga ham xos bo‘lgan asosiy fazilatlardan biri. “Boburnoma”ni o‘qish jarayonida biz bunga ko‘p guvoh bo‘lamiz. Bu fazilat Boburga otasidan, unga esa bobosi Mironshoh Mirzodan o‘tgan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining “Matlai sa‘diyn va majmai bahrayn” asarida

Boburning katta bobosi Mironshoh mirzoning ham saxovati ulug‘, himmati baland ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan edi.

Bobur otasining xarakteridagi kamchiliklarni ham ro‘y-rost aytadi. Masalan, otasida hukmdor uchun eng asosiy fazilat – diplomatiyaning yo‘qligini shunday bayon qiladi: “Mulgirlik dag‘dag‘asi jihatidin xeyli yarashlar urushqa va do‘stluqlar dushmanliqqa mubaddal bo‘lur erdi” [Bo‘by 1989, 10].

“Boburnoma” da Bobur o‘zining ikkita amakisi – Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmud Mirzolar haqida ham to‘liq ma’lumot beradi. Bobur bergan xarakteristikadan biz bu ikki temuriy hukmdor haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lamiz. Sulton Ahmad Mirzo pokiza e’tiqodli, xushmuomala, sodda tabiatli, ahdiga vafo qiluvchi, hayoli kabi yaxshi sifatlar egasi deb ta’riflanadi. Lekin shu bilan birga jiddiy kamchiliklari ham bor. Butun ixtiyorini beklarga topshirib qo‘ygan, bir ichkilikka tushib ketsa yigirma-o‘ttiz kunlab ichadigan, qat’iyatsiz hukmdor sifatida namoyon bo‘ladi. Uning qat’iyatsizligiga misol qilib Bobur o‘zi bilan amakisi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan quyidagi voqeani keltiradi. Shu paytda, ya’ni Umarshayx Mirzo vafot etgan vaqtda Sulton Ahmad Mirzo Andijon ustiga qo‘shin tortib kelgan edi. Umarshayx Mirzo vafot etgach, Bobur taxtga chiqadi va amakisi Sulton Ahmad Mirzo bilan muzokara olib boradi. Bobur amakisiga elchi jo‘natib, uning vassali sifatida Farg‘ona viloyatini boshqarishni so‘raydi, ya’ni amakisiga itoat qilmoqchi bo‘ladi:

“Xoja Qozini va Uzun Hasan Xoja Husaynni elchilikka bu mazmun bila yuborildikim, bu viloyatta mulozimlardin bir kishini xud qo‘yulg‘usidur. Men ham mulozim va ham farzand, agar bu xizmatni manga uhda qilsalar yaxshiroq va osonroq faysal topqusidur” [Bo‘by 1989, 18].

Bu taklif Sulton Ahmad Mirzo uchun eng qulay va eng o‘rinli taklif edi. Lekin u o‘z jiyaning bu taklifiga qaramadi. Hech qanday talofatsiz o‘zining foydasiga hal bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishni beklari va amirlarining ra’yiga qarab qabul qilmadi: “Sulton Ahmad mirzokim, kamsuxun va faqir va odmi kishi edi. Har so‘z-un va ish-uch beklarsiz qaror topmas edi, beklar bu so‘zlarga multafit bo‘lmay, durust javoblar aytib, ilgariga ko‘chtilar. Tengri taolokim, o‘z qudrati komilasi bila har ishimni har mahalda andoqkim boyadu shoyad beminnati maxluq rost kelturubdur, munda ham necha ishni bois qildikim, alar bu kelmakdin o‘sondilar, balki bu tavajjuh din pushaymon bo‘lub, bemurod yondilar” [Bo‘by 1989, 27].

Lekin oxir-oqibat vaziyat Boburning foydasiga hal bo‘ladi va ular o‘zlari sulh taklif qilishga majbur bo‘ladilar. Sulton Ahmad Mirzo bu yurishdan hech qanday natijasiz qaytadi va O‘ratepaga yetib kelganda vafot etadi.

Bobur o‘zining ikkinchi amakisi Sulton Mahmud Mirzo haqida ham batafsil ma’lumot beradi. Ma’lumki, u Samarqand taxtiga akasi Sulton Ahmad Mirzoning vafotidan keyin o‘tirgan. Bu taxminan 1494-yilga to‘g‘ri keladi. U akasidan farqli ravishda juda qattiqqo‘l bo‘lib, lashkar va fuqaro uning chizig‘idan chiqa olmas edi. Sulton Mahmud Mirzo Samarqand taxtida besh-olti oygina o‘tiradi, xolos. Shu vaqtning o‘zidayoq uning va beklarining zulmidan, fahsh ishlaridan Samarqand xalqi bezor bo‘ladi. Bobur bu amakisining xarakteridagi yaramas jihatlarni birma-bir sanab o‘tadi. Bobur uning yomon ishlarini sanar ekan, Xoja Ubaydulloh Ahrorga taalluqli kishilarga va uning farzandlariga qilingan zulm va yomonliklarga alohida to‘xtalib o‘tadi.

Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, Amir Temur avlodlari ichida Xoja Ahrorga munosabat masalasi alohida ahamiyatlidir. Ma’lumki, Xoja Ahrorning Movarounnahrda katta mavqega ega bo‘lishi va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi

Sulton Abu Said Mirzo hukmronligining dastlabki yillariga to'g'ri keladi. Abu Said Mirzo og'ir vaziyatlarga tushib qolganda Xoja Ahrorning unga qanday yordamlar bergani tarixdan ma'lum. Abu Said Mirzo uni pir sifatida juda qattiq hurmat qilgan. Uning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo Va Umarshayx Mirzolar, Boburning o'zi ham uni ota o'rnida ko'rib qattiq hurmat qilganlar. Xoja Ahrornig vafotidan keyin esa uning farzandlari va unga taalluqli kishilarning ham rioyasini juda qattiq tutishgan.

Lekin Abu Said Mirzoning o'g'illari ichida Sulton Mahmud Mirzogina Xoja Ahror va uning farzandlariga mensimaslik nazari bilan qaraydi. Samarqand taxtiga o'tirgach esa ularga ochiqdan-ochiq zulm qilishga o'tadi: "Samarqandg'a kimgach, o'zgacha tartib va nasaq va xarj va tahmil bunyod qila boshladi. Hazrati Xoja Ubaydullohning mutaallig'akim, burun xarj va tahmillarda ko'p faqir va miskin alarning himoyati bila zulm va taaddidin xalos bo'lurlar edi, ne joy ulkim, alarg'a mundoq takliflar bo'lg'ay, ko'p taaddi va tashaddud qila boshladi. Balki bu taaddi va tashaddud Xojaning avlodig'a dag'i siroyat qildi" [Bo'gyp 1989, 24].

Bobur "Boburnoma"da o'zi bilan bir avloddan bo'lgan bir necha shahzodalar – amakivachchalari haqida ham to'xtalib o'tadi. Bular ichida amakisi Sulton Mahmud Mirzoning ikkinchi o'g'li Boysung'ur Mirzoga berilgan tavsif ancha ahamiyatli. Boysung'ur Mirzo Samarqand taxtiga otasidan keyin, o'n sakkiz yoshida o'tiradi. Bobur Samarqandni undan tortib olgan. Boysung'ur Mirzo Samarqandni tashlab, Hisorga ketishga majbur bo'ladi. U yerda qisqa vaqt hukmronlik qilgan o'zining beki Xisravshoh tomonidan qatl etiladi. Bu voqeani Bobur cheksiz alam va iztirob bilan shunday tasvirlaydi: "Ushbu yil Xisravshoh Balx ustiga cherik borur xayoli bila Boysung'ur mirzoni tilab, Qunduzg'a kelturub, Balx ustiga otladi. Uyoqcha yetgan chog'da Xisravshoh badbaxt kofiri ne'mat saltanat dag'dag'asi bilakim, saltanat andog' nokas, behunarlariga ne nav' yetgay! Ne asl, ne nasab, ne hunar, ne asab, ne tadbir, ne shujoat, ne insof, ne adolat! Boysung'ur mirzoni beklari bila tutub, Boysung'ur mirzog'a kerish solib, muharram oyining o'ni edikim, mundoq hushta'b va purfazilat va hasab va nasab bila orosta podshohzodani shahid qildi" [Bo'gyp 1989, 63].

Bobur, shuningdek, Sulton Mahmud Mirzoning yana ikki o'g'li – Sulton Mas'ud Mirzo va Sulton Ali Mirzolar haqida ham to'liq ma'lumot beradi.

Bu aka-ukalar o'rtasida Samarqand taxti uchun bo'lgan kurashlar, Boysung'ur mirzoning buyrug'i bilan Sulton Ali Mirzoning ko'ziga mil tortilishi, uning ko'ziga zarar yetmay, Buxoroga qochib ketishi, yana qo'shin to'plab Samarqandga yurish qilishi voqealari tafsilotlari bilan berilgan.

Boburning o'z ukalari – Jahongir Mirzo va Nosir Mirzo haqidagi fikrlari ham "Boburnoma"ning bir necha joylarida uchraydi.

"Boburnoma"da Boburning o'z otasi Umarshayx Mirzo, amakilari Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmud Mirzolar, amakivachchalari – shahzodalar Sulton Mas'ud Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Sulton Ali Mirzolar, shuningdek, ukalari Jahongir Mirzo hamda Nosir Mirzolar haqidagi fikrlaridan hamda ularning voqealar jarayonidagi tahlikali holatlarda qabul qilgan qarorlaridan ma'lum bo'ladiki, shu davrda Movarounnahrda temuriy hukmdorlar va shahzodalar orasida ota-bobolari saltanatini egallab, uni birlashtirishga layoqatli, kuchli iroda va katta mavqega ega bo'lgan hukmdorlar qolmagan edi

"Boburnoma"da Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va uning o'g'illari tasviriga ham keng o'rin berilgan. To'qqiz yuz o'n birinchi (1505-1506) yil voqealari bayonida Husayn Boyqaro o'z o'g'illari va atrofdagi temuriy shahzodalarni o'z

huzuriga chorlab, Shayboniyxonga qarshi birgalikda jang qilishni reja qilgani aytiladi: "Ushbu mahallarda Sulton Husayn mirzo Muhammad Shayboniyxonning daf'ig'a azm-jazm qilib, tamom o'g'lonlarini tilatti, meni dag'i Sayid Sulton Ali xobbinning o'g'li Sayid Afzalni yiborib tilab edi. Xuroson jonibini azimat qilmoq bizga necha jihattin lozim buldi. Bir bukim, Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'runig'a o'lturg'on ulug' podshoh yig'noq qilib, atrof va javonibdin o'g'lonlarini va beklarini tilatib, Shayboniyxondek g'animning ustiga ozim bo'lg'onda, el oyoq bila borg'onda, biz bosh bila borg'aybiz, el tayoq bila borg'onda – biz tosh bila borg'aybiz..." [Bobyp 1989, 146].

Lekin Sulton Husayn Mirzoning bu niyati amalga oshmaydi. U Shayboniyxonga qarshi qo'shin tortib, Bobo Ilohiy degan joyga yetgach, vafot etadi.

"Boburnoma"da Sulton Husayn Mirzo haqidagi ma'lumotlar ancha to'liq berilgan. Uning tug'ilgan yili, ota-bobolari, aka-opalari, farzandlari, xotinlari, amirlari haqida batafsil to'xtab o'tiladi. Husayn Boyqaroning olib borgan janglari haqida so'zlar ekan, Bobur uning shijoatli sarkarda, botir jangchi bo'lganligini alohida ta'kidlaydi. Ayniqsa uning oltmish nafar askari bilan Sulton Abu Said Mirzo ilg'or sifatida yuborgan uch ming kishilik qo'shinni yenganini: "...Yana bir qatla Sulton Abu Said mirzo Muhammad Ali baxshi boshliq uch ming kishini ilg'or yiborib edi, Sulton Husayn mirzo oltmish yigit bila kelib, tegib zarbi rost bosti. Sulton Husayn mirzoning bir yaxshi ishi va namoyon ishi budur" [Bobyp 1989, 148] deb ta'riflaydi.

Yoshlik davrlarida shunday hayron qolarli darajada shijoat va mardlik ko'rsatgan hukmdorning yoshi ulg'aygan sari aysh-ishratga berilib, qo'shinni kuchaytirmay, mamlakat hududlarini kengaytirmay, o'z holiga tashlab qo'yganini afsus bilan ta'kidlab o'tadi: "...Chun Hiridek shahr ilgiga tushti, tunu kun ayshu ishrattin o'zga ishi yo'q edi, balki tavobi' va lavohiqida ayshu ishrat qilmas kishi yo'q edi. Jahongirliq va lashkarkashliq ranj va taabin tortmadi, lojaram borg'on sayi navkar va viloyati kam bo'ldi va ortmadi" [Bobyp 1989, 149].

Bobur shunday shijoatli va jasur hukmdorning o'g'illaridan birortasi otasining vafotidan keyin Shayboniyxonga qarshi qo'shin tortib chiqishga ham, Hirot qal'asini berkitib himoya qilishga ham yaramaganini, hatto onalari, opa-singillari, xotin va bola-chaqalarini, xazinani ham dushman qo'liga qoldirib, o'z jonini qutqarish harakatida bo'lganini achinib yozadi: "Mirzolarning ona va egachi-singil va haramlari va xavotinlari tamom qal'ai Ixtiyoriddinda edikim, Olaqo'rg'onga mashhurdur, mirzolar kech shahrg'a yetarlar, yarim kechagacha otlarini tindurub uyuxlarlar, sahar vaqti solib tebrarlar. Qo'rg'on berkuturni xud xayol kila olmaslar. Muncha fursat va furjada ona va egachi-singilni va kuch va o'g'lon-ushoqni ham olib chiqmay, o'zbekning asirligiga tashlab qocharlar" [Bobyp 1989, 185].

"Boburnoma"da keltirilgan temuriy hukmdorlarning, shahzodalarning portretlaridan, ularning xulq-atvorlaridan, salohiyat va qobiliyatlaridan ma'lum bo'ladiki, yuz ellik yilga yaqin bu mintaqada hukmronlik qilgan qudratli sulola vakillari ichida ota-bobolarining saltanatini birlashtirishga, markazlashgan davlat tuzishga qodir kuchli shaxsiyat egalari qolmagan edi. Binobarin, hayot qonuni shundayki, har bir ko'tarilgan narsa albatta bir kun kelib tushadi. Temuriylar sulolasining quyoshi ham botishga kelib qolgan edi. Bobur mana shu sulolaning hokimiyatga ega bo'lgan oxirgi kuchli vakili bo'lsa-da, hali juda yosh edi. Zero, u ulug' bir sulolaning oxirgi vakili bo'lishi bilan birga, yangi bir sulolaning bobokaloni o'laroq tarix sahnasiga kirib keldi.

Adabiyotlar

Бобур Заҳириддин Муҳаммад. 1989. *Бобурнома*. Тошкент: Юлдузча.

Джамалов С. 1961. *О художественных особенностях "Бабур-наме"*. АКД, Т.
Стеблева И.В. 1983. *Захираддин Мухаммад Бабур – поэт, прозаик, учёный*. Т.

«БАБУР НАМЭ» КАК КОМПЛЕКСНЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ВОСТОКА: ПРЕИМУЩЕСТВА И ПРОБЛЕМЫ

Абытов Байболот Капарович*

Аннотация

“Бабур-намэ” рассматривается нами как весьма важный, широкопрофильный и комплексный источник по истории, этнографии, культуре, географии, востоковедению, топонимике, правоведению народов и государств обширных территорий, ряда регионов Востока, в эпоху средних веков и начало нового времени. “Записки Бабура” многосторонне и подробно извещает о деяниях людей государственного управления – правителях, полководцах, не менее искусно рассказывает и о поэтах, людей искусства, музыки, также об учёных, чьи успехи открыли новые достижения науки. Отмечено, что “Бабур-намэ”, выступает как весьма ценный первоисточник по истории народов Центральной Азии, Афганистана и Индии, также имеет непосредственное отношение к истории Кыргызстана в эпоху Бабура и бабуридов.

Ключевые слова: *ценный источник, история, культура, право, Центральная Азия, Индия.*

"BABUR-NAME" AS A COMPREHENSIVE SOURCE ON THE HISTORY OF THE EAST: ADVANTAGES AND PROBLEMS

Annotation

“Babur-nama” is considered by us as a very important and wide-profile source on history, ethnography, culture, geography, oriental studies, toponymy, jurisprudence of peoples and states of the vast territories, a number of regions of the East, in the Middle Ages and the beginning of modern times. “Babur’s Zapiski” informs in detail about the deeds of the people of state administration - rulers, commanders, no less skillfully tells about poets, people of art, music, as well as scientists, whose successes have opened up new achievements of science. It is noted that “Babur-nama” acts as a very valuable primary source on the history of the peoples of Central Asia, Afghanistan and India, and is also directly related to the history of Kyrgyzstan in the era of Babur and the Baburiods.

Key words: *valuable source, history, culture, law, Central Asia, India.*

Весьма заметной фигурой в государственном управлении, политике, военном искусстве, поэзии, философии средних веков и нового времени был и остаётся великий султан **Захир ад-дин Мухаммед Бабур** (1483–1530 гг.). Он

* Доктор исторических наук, профессор, член-корреспондент Российской академии естественных наук, Институт Востоковедения Ошского государственного университета, Кыргызской Республики, babytov@oshsu.kg

Usmon QOBILOV. Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida mumtoz an'anaviy obrazlar talqini	275
Dilnavoz YUSUPOVA. Aleksandr Mixaylovich Shcherbak – "Aruz risolasi"ning tadqiqotchisi	278
Orzigul HAMROYEVA. Bobur ruboiylarida vazn va qofiya uyg'unligi	285
Aida BUMATOVA. "Boburnoma"dagi she'riy namunalar tarjimasida obrazlar	289
Şehla MƏCIDOVA. Babur poeziyasında sevgi qasidi səba	293
Jamila EISAR. Bobur she'riyatida folklorning o'rni	294
V SHO'BA. "BOBURNOMA"NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI PANEL V. THE LITERARY, LINGUISTIC, HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL INTERPRETATIONS OF "BABURNAMA"	
Hamidulla DADABOYEV. XVI asr o'zbek tili so'z boyligi taraqqiyotida Boburning o'rni	298
Islam JEMENEY. "Boburnoma"da qozoq, qozoqlik va turkiy el haqidagi qarashlar	302
Дарья Жигульская. «Бабур-наме» как исторический источник в исследованиях профессора Т.И. Султанова	310
Muhittin GÜMÜŞ. Türkiye'de Bâbürnâme Üzerine Çalışmalara Kısa Bir Bakış	314
Zulxumor XOLMANOVA. Bobur – semantikaning sohir bilimdoni	325
Muhterem SAYGIN. Zahîrüddin Muhammed Bâbü'r'ün Hatıratında Ali Şîr Nevâyî'nin Sosyal Çevresi ve Kişiliği	332
Rukhsana Iftikhar. Socio-Cultural Legacies of Central Asia in Tuzuk -i Baburi	337
Akramjon DEHQONOV. "Boburnoma"da Boburga zamondosh temuriy hukmdorlar portretining yaratilishi	344
Байболот АБЫТОВ. «Бабур намэ» как комплексный источник по истории востока: преимущества и проблемы	349
Muxtor MIRZOAHMEDOV. "Boburnoma"da ma'muriy-boshqaruv tizimiga doir huquqiy atamalarning qo'llanishi	356
Omonullo BO'RIYEV. "Boburnoma"da Hirotning tarixiy-geografik tavsifi	361
Батырхан БОЛАТБЕК, Кастер САРКЫТКАН. Великие наследие тюркского мира – Бабурнама и казахская духовность	366
Маҳмадшо МАХМАДШОЕВ. Таҷассуми шахсиятҳои адабӣ, илмӣ ва ҳунарий дар "Бобурнома"-и Заҳируддин Муҳаммад Бобур	373
Ihom ASLONOV. "Boburnoma" kompozitsiyasi va uslubida muallif psixologik holatlarining aks etishi	384
Elmira HAZRATQULOVA. Tarixiy asarlarda valiylarga munosabat	389
MahliyoXon TUXTASINOVA. Bobur asarlarining L. Budagov lug'atida aks etishi	401